

KONFERENSIYALAR.COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

O'ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

**IX RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

DEKABR, 2025-YIL



O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI

**IX RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, dekabr

TOSHKENT-2025

ISBN 978-9910-8337-4-8

O'ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI. IX Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 69 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 29-noyabr

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur nashrda "O'zbekiston — 2030: innovatsiya, fan va ta'lim istiqbollari" nomli IX Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi doirasida taqdim etilgan ilmiy maqolalar to'plami jamlangan. Unda O'zbekistonning turli oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, tarmoq tashkilotlari, mustaqil tadqiqotchilar tomonidan taqdim etilgan ijtimoiy-gumanitar, iqtisodiyot, huquq, biologiya, tibbiyot va boshqa sohalarga oid maqolalar kiritilgan. Maqolalarda ilm-fanning zamonaviy yo'nalishlari, innovatsion texnologiyalar, ta'lim islohotlari hamda barqaror taraqqiyotga oid masalalar muhokama qilingan. To'plam akademik izlanishlar, amaliy tajribalar va ilmiy xulosalarni birlashtirgan holda, fanlararo integratsiyani chuqurlashtirish va ilmiy hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsiya, fan va ta'lim, O'zbekiston 2030, barqaror rivojlanish, ilmiy izlanishlar, fanlararo integratsiya, ilmiy hamkorlik, texnologik taraqqiyot, zamonaviy ta'lim.

ISBN 978-9910-8337-4-8

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

TEXNIKA FANLARI

Sharipova Zaynab

NEFT SHLAMLARINING FIZIK-KIMYOVIY TARKIBI VA EKOLOGIK XUSUSIYATLARINI TADQIQ
ETISH MASALASIGA DOIR DASTLABKI TADQIQOTLAR4-12

Kasimov Sandjar

ENERGIYA TEJOVCHI TEXNOLOGIYALARNI SERTIFIKATLASHTIRISH VA
STANDARTLASHTIRISHNING ILMIY ASOSLARI MASALASI 13-21

Rahimov Oktyabr, Cho'liyeva Munisa

MEHNAT XAVFSIZLIGINI BOSHQARISHDA KOMPETENTLIKGA YEVRUPACHA
YONDOSHUV 22-26

Safoyev Nuriddin

AXBOROTNI KRIPTOGRAFIK HIMOYALASHDA TASODIFIY SONLAR GENERATORLARINING
AHAMIYATI VA ISTIQBOLLARI 27-33

TARIX FANLARI

Pirimkulova Saodat

URUSH YILLARIDA BOLALAR MUAMMOSI: TARIXIY XOTIRA VA HUJJATLARDAGI
ETILISHI 34-36

Eliyeva Nargiza

BENAZIR ILM SOHIBI 37-39

IQTISODIYOT FANLARI

Usmonov Murodbek

QISHLOQ JOYLARDA XIZMAT KO'RSATISH ORQALI AHOLI BANDLIGINI IFODALOVCHI
KO'RSATKICHLAR TAHLILI 40-44

Valiev Umid

OLIV TA'LIM TASHKILOTLARI BITIRUVCHILARINI TADBIRKORLIKKA JALB ETISH CHORA-
TADBIRLARI 45-48

YURIDIK FANLARI

Reymbayeva Guldaulet

THE RIGHTS OF TOURISTS IN THE DIGITAL ERA: NEW CHALLENGES AND LEGAL
PROTECTIONS 49-54

Турсунова Маликахон

ДИПЛОМАТИЯ И МЯГКАЯ СИЛА: СООТНОШЕНИЕ И СОВРЕМЕННЫЙ НАУЧНЫЙ
ВЗГЛЯД 55-63

Muxitdinova Firuza

KONSTITUTSIYAVIY MODERNIZATSIYA VA XALQARO HAMKORLIK: O'ZBEKISTONNING
DUNYO MAYDONIDAGI YANGI YO'NALISHI 64-68

OLIV TA'LIM TASHKILOTLARI BITIRUVCHILARINI TADBIRKORLIKKA JALB ETISH CHORA-TADBIRLARI

Valiev Umid Gulamovich

O'zmilliybank AJ, "Kelajakka qadam" Markaz direktori o'rinbosari

Email: UValiev@nbu.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarini tadbirkorlikka jalb etishning zamonaviy mexanizmlari, ularni qo'llab-quvvatlash infratuzilmasi va ta'lim tizimidagi innovatsion yondashuvlarning roli tahlil qilinadi. Bitiruvchilarning tadbirkorlik kompetensiyalarini kuchaytirish, inkubator va akseleratorlar orqali amaliy ko'mak berishning samaradorligi asoslab beriladi. Shuningdek, O'zbekiston sharoitida yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish bo'yicha takomillashtirilgan chora-tadbirlar taklif etiladi.

Kalit so'zlar: tadbirkorlik, bitiruvchi, oliy ta'lim, inkubator, startap, kompetensiya.

MEASURES TO INVOLVE GRADUATES OF HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS INTO ENTREPRENEURSHIP

Valiev Umid Gulamovich

Deputy Director of the Center "Step into the Future", JSC Uzmilliybank

Annotation. This article analyzes modern mechanisms for attracting graduates of higher education institutions to entrepreneurship, their support infrastructure and the role of innovative approaches in the education system. The effectiveness of strengthening graduates' entrepreneurial competencies and providing practical support through incubators and accelerators is substantiated. Improved measures are also proposed to develop youth entrepreneurship in the conditions of Uzbekistan.

Key words: entrepreneurship, graduate, higher education, incubator, startup, competence.

Yoshlar tadbirkorligi iqtisodiyot rivojlanishining drayveriga, kichik va o'rta biznes hisobiga mahalliy budjetni to'ldirish manbai va innovatsion g'oyalarni amalga oshirish vositasi hisoblanadi. Mazkur segmentning asosiy xususiyatlari birinchi navbatda innovatsiyaga ochiqlik, ijtimoiy-iqtisodiy noaniq sharoitlarga moslasha olish va tavakkalchilikka asoslangan qarorlarni qabul qilish qobiliyatidir.

Biroq yoshlarning hususan oliy ta'lim bitiruvchilarining o'z biznesini ochish va rivojlantirishda duch keladigan muammolarini ham o'ziga xosligini qayd etish lozim. Biznes g'oyasi mavjud oliygoh bitiruvchilari duch kelayotgan muammolarning muhimlarini aniqlash maqsadida yoshlar tadbirkorligiga bag'ishlangan mahallay va xorijiy nashrlar tahlil qilindi. O'rganishlar asosida yoshlar tadbirkorligini rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan muammo va tizimdagi bo'shliqlar ikki guruhga ajratish mumkin: shaxsiy yoki motivatsion, professional bilim va tajribaning yo'qligi, me'yoriy xujjatlar bilan bog'liq muammolar.

Birinchisi bu talabalarning ijtimoiy kayfiyat pastligi bo'lib, ularda tavakkal qilish, yangilik yaratishga tayyorlik, tadbirkorlik shijoati va motivatsiyaning zaifligini ko'rsatish mumkin. Ular ko'proq yirik biznes va hususiy sohada faoliyatni davom ettirish yoki davlat xizmatidagi ishlash barqarorligini tadbirkorlik tavakkaliga nisbatan afzal ko'radilar.

Ikkinchi guruhda asosiy muammo sifatida tadbirkorlik sohasida professional va maxsus bilimlar, tajriba va mentorlike tizimi yahshi rivojlanmaganligini qayt etish mumkin. Oliy ta'lim tashkilotlari nazariy baza bersa-da, amaliyotda ko'pchilik bitiruvchilar ishni nimadan boshlashni bilmaydi. Bu asosan ta'lim dasturlari mazmuni va sifati yetarli emasligi bilan bog'liq. An'anaviy ta'lim muassasalari iqtisodiy bilim asoslarini beradi, ammo muvaffaqiyatli tadbirkorlik uchun zarur bo'lgan rag'bat va biznes kompetensiyalarni shakllantirmaydi. Aksariyat oliygoh o'quv dasturlariga tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, yoshlarni biznesga yo'naltirish, ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan ani fanlar kiritilmagan.

Oliy ta'lim bitiruvchilarini tadbirkorlikka jalb etish bo'yicha ilmiy izlanishlar, avvalo, tadbirkorlik ta'limining talaba va bitiruvchilarga ko'rsatadigan ta'sirini o'rganishga qaratilgan. Tizimli tahlillar shuni ko'rsatadiki, tadbirkorlik ta'limi bitiruvchilar bilim va ko'nikmalarini oshirish bilan birga, tashabbuskorlik, o'ziga ishonch va mustaqillik kabi psixologik omillarni kuchaytiradi [1].

Shu bilan birga, ta'lim dasturlarining samaradorligi yagona emas: kurs mazmuni, pedagogik yondashuv va o'qituvchilarning malakasi talabalar tadbirkorlik niyatiga farqli ta'sir ko'rsatadi [2]. Ayrim tadqiqotlar ta'lim jarayoni faqat nazariy bilimlarga asoslanganda natija past bo'lishini, amaliy mashg'ulotlar, loyihalar, mentorlik va real biznes muhitida tajriba orttirish komponentlari kuchaytirilganda esa samaradorlik sezilarli ortishini qayd etadi [3].

Yana bir muhim yo'nalish — tadbirkorlik bo'yicha kurslar turining talabalar niyatiga turlicha ta'siri. Ixtiyoriy, majburiy yoki chuqurlashtirilgan kurslar talabalarning tadbirkorlikka bo'lgan intilishini har xil darajada shakllantiradi, bu esa oliy ta'lim muassasalari tadbirkorlik dasturlarini nozik rejalashtirish zarurligini ko'rsatadi [4].

Ilmiy manbalarda ta'kidlanishicha, universitet inkubatorlari, akseleratorlar va qo'llab-quvvatlash xizmatlari bitiruvchilarni tadbirkorlikka jalb etishda hal qiluvchi omillardan biridir. Inkubatorlarning mentorlik, tarmoq aloqalari, ofis maydoni, treninglar va moliyaviy ko'mak kabi xizmatlari bitiruvchilar tomonidan biznes boshlash ehtimolini oshiradi [5]. Shuningdek, universitet inkubatorlari bitiruvchilarning innovatsion fikrlashini rivojlantirib, startaplarni erta bosqichda qo'llab-quvvatlash orqali ularning barqarorligini ta'minlaydi [6]. Yosh tadbirkorlar bilan inkubatorlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni o'rgangan tadqiqotlar ham inkubator xizmatlari startaplarning raqobatbardoshligini sezilarli kuchaytirishini tasdiqlaydi [7].

Bundan tashqari, yurtimizning ayrim hududlarida talabalarni zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi, axborot almashishi, o'z g'oyalarini ishlab chiqishi va mutaxassislardan maslahat olishi mumkin bo'lgan maydonchalar, coworking zonalar yetarli rivojlanmagan. Natijada aksariyat biznes g'oyalar oliygohlar va ilmiy laboratoriyalarda qolib ketmoqda va amaliyotga joriy etilmayapti.

"Kelajakka qadam" dasturi doirasida oliy ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari orasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari 1-jadvalda keltirilgan. So'rovnoma 2025 yilning may oyida HEMIS oliy ta'lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimi yordamida o'tkazilgan bo'lib, unda 109 ming nafardan ortiq bitiruvchi talaba (respondent) ishtirok etgan. O'tkazilgan so'rovnoma natijalari haqiqatdagi vaziyatni ochiqdagi deb aytish mumkin. Sababi 2024-2025 o'quv yilini bitirayotgan 260 ming nafar talabadan 42%i bevosita so'rovnomada ishtirok etgan. Bu esa

o'tkazilgan so'rovnoma katta miqyosda tashkil qilinganligini hamda ob'ektiv holatga to'g'ri baho berish imkonini yaratdi.

1-jadval

Oliy ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari orasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari

No	Savollar	Berilgan javoblar	So'rovnomaga qatnashgan talabalar soni	%
Jami:			109 500	100
1	Oliygo'zni tamomlagandan so'ng maqsadingiz qanday?	Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanmoqchiman	12 722	12
a	Tadbirkorlik faoliyatini rejalashtirganmisiz?	Ha tayyor biznesni davom ettiraman	7 851	7
b		Ha, biznes rejam bor, biroq moliyaviy mablag'im yetarli emas	2 900	3
c		Yo'q, lekin, biznes qilish uchun o'z ustimda ishlamoqchiman	1 971	2

Manba: Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma'lumoti (01.05.2025y)

Hususan, so'rovnomada berilgan "Oliygo'zni tamomlagandan so'ng maqsadingiz qanday?" degan savolga bitiruvchilarning 12,7 ming nafar (12%)i tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish istagini bildirgan. Shundan, 7,8 ming nafar (7%)i mavjud (oilaviy, yaqin qarindosh, tanishlarining) biznesini davom ettirishini ta'kidlagan bo'lsa, 2,9 ming nafar (3%)i tadbirkorlik rejasi mavjudligini, ammo moliyaviy mablag' (hususan garov ta'minoti) mavjud emasligini qayd etgan. Shuningdek, 2,0 ming nafar (2%)i biznes boshlashdan avval tadbirkorlik ko'nikmalarini oshirishga ehtiyoji borligini ko'rsatib o'tgan.

Kichik va o'rta korxonalarning bozorga kirishini qonunan yengillashtirish, ortiqcha rasmiy protseduralarni qisqartirish, qonunchilikning eskirgan moddalarini qayta ishlash, yosh hususan oliy ma'lumotli bitiruvchilarning tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash siyosatini barcha darajada rivojlantirish darkor.

Yuqorida qayd etilgan muammolarni hal etish uchun quyidagi yechimlar taklif qilinadi:

- "Kelejakka qadam" dasturini tijorat banklari o'rtasida ommalashtirish;
- Oliy ta'lim tashkilotlari o'quv dasturlariga biznes ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan aniq fanlarni kiritish;
- Yoshlar uchun kafolat jamg'armalarini tashkil etish;
- Tadbirkorlik inkubatorlari va kovorking markazlarini kengaytirish;
- Oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilari tomonidan amalga oshiriladigan startap va innovation loyihalarni grant mablag'lari hisobidan qo'llab-quvvatlash;
- Elektron moliya platformalariga keng yo'l ochish;
- Venchur fondlar va xususiy investorlar ishtirokini kengaytirish.

Oliy ta'lim tashkilotlarining bitiruvchisi bo'lgan yosh tadbirkorlar "ertangi kunga ishonch" hissiga ega bo'lishi va mavjud murakkab iqtisodiy sharoitda o'z biznes-loyihalarini ishga tushirishlari uchun ichki va tashqi siyosiy barqarorlikka erishish zarur.

Adabiyotlar/Literatypa/References:

1. Nabi, G., Liñán, F., Fayolle, A., Krueger, N., Walmsley, A. The Impact of Entrepreneurship Education in Higher Education // Academy of Management Learning & Education. – 2017. – Vol. 16, No. 2. – pp. 277–299.
2. Sahinidis, A. G., Savvas, C., Sdrolas, L., et al. Shaping entrepreneurial intentions // Journal of Entrepreneurship Education. – 2020. – Vol. 23, No. 3. – pp. 1–10.
3. Alakaleek, W. The impact of entrepreneurship education // International Journal of Management Education. – 2023. – Vol. 21, No. 3. – pp. 1–12.
4. Dias, J. Impact of Entrepreneurship Education: Evidence from GUESS. – Enschede: University of Twente, 2021. – 52 p.
5. Ayad, T., Alsharif, A., et al. University Incubator Support and Entrepreneurial Intention // Sustainability. – 2022. – Vol. 14, No. 23. – Article 16045. – pp. 1–15.
6. 2025-yil 12-iyuldagi “Yoshlar bandligini ta’minlash bo’yicha kompleks chora-tadbirlar to’g’risida”gi PQ-5124-sonli Prezident qarori.
7. 2025-yil 14-fevraldagi “Oliy ta’lim tashkilotlari bitiruvchilarining ishga joylashishiga ko’maklashish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi PQ-61-sonli Prezident qarori.
8. Stiglitz, J. Creating a Learning Society. Columbia University Press 2016y.
9. Youth Entrepreneurship and Access to Finance. OECD Publishing 2022y.
10. Qahhorov A. Tadbirkorlikni moliyalashtirishning innovatsion mexanizmlari. T.: Iqtisodiyot. 2020y.
11. Mamadaliyev N. Yoshlar jamg’armasi faoliyatida moliya resurslarini boshqarishning samaradorligi. T.: Iqtisodiy tahlil. 2021y.

O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI

IX RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2025-yil, 1-dekabr

Mas’ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM
ISTIQBOLLARI. IX Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 69 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: Scienceproblems Team

Konferensiya o‘tkazilgan sana: 2025-yil, 29-noyabr

ISBN 978-9910-8337-4-8

Barcha huqular himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.